“Uzbekistan Airports” AJ va uning tarkibiy tuzilmalarida korrupsiyaviy xavf-xatarni baholash Uslubiyotiga 2-ilova


2.1-jadval – Korrupsiyaviy xavf-xatar ehtimoli darajasini aniqlash mezonlari

Ehtimoli	Ta’rifi
Юқори	- O‘ziga xos xavf-xatar darajasi yuqori - Nazorat tadbirlarining mavjud emasligi / sezilarli darajada kam-ko‘stini to‘ldirish kerak bo‘lgan nazorat tadbirlarining mavjudligi - Tartib-taomilni avtomatlashtirish mavjud emasligi/darajasi pastligi
Ўртача	—O‘ziga xos xavf-xatar darajasi o‘rta —Tartib-taomil tartibga solingan, kam-ko‘stini oz miqdorda to‘ldirish kerak bo‘lgan nazorat tadbirlari joriy etilgan —Tartib-taomil tartibga solingan, qisman avtomatlashtirilgan, biroq yetarli darajada shaffof emas — O‘ziga xos xavf-xatar darajasi yuqori xavf-xatarni kamaytirish uchun yetarli bo‘lgan nazorat tadbirlari, jumladan Tashkilotning ichki hujjatlari bilan tartibga solingan, kamida uchta shaxs tomonidan kross-funksional nazorat (davlat organi va tashkiloti hududiy va tarkibiy davlat bo‘linmalarining nazorat qilinishi)ni ko‘zda tutuvchi nazorat tadbirlarining mavjudligi —Tartib-taomil qisman yoki to‘liq avtomatlashtirilgan
Паст	— O‘ziga xos xavf-xatar darajasi past O‘ziga xos xavf-xatar darajasi o‘rta hamda xavf-xatarni kamaytirish uchun yetarli bo‘lgan nazorat tadbirlari, jumladan ichki hujjatlar bilan tartibga solingan, kamida uchta shaxs tomonidan kross-funksional nazoratni ko‘zda tutuvchi nazorat tadbirlarining mavjudligi — Tartib-taomil to‘liq avtomatlashtirilgan

2.2-jadval – Korrupsiyaviy xavf-xatarning oqibat (ta’sirchanlik) darajasini aniqlash mezonlari

Oqibat darajasi	Obro‘ga putur yetkazish	Javobgarlik
Юқори	– Xavf-xatar tashkilotning mamlakat va xalqaro miqyosdagi obro‘siga sezilarli ravishda putur yetkazadi	– Tashkilot xodimlariga nisbatan jinoiy ish qo‘zg‘atish uchun tegishli organlarga hujjat yuborish tashabbusi bilan chiqish
Ўрта	– OAVda salbiy hodisaning yoritilishi; – Aholi va hamkorlardan salbiy fikrlar va shikoyatlar olish; – xavf-xatar tashkilot obro‘siga mahalliy darajada putur yetkazadi.	– Tashkilot xodimlariga nisbatan ma’muriy surishtiruv o‘tkazish uchun hujjatlarni Korrupsiyaga qarshi kurashish agentligiga yuborish tashabbusi bilan chiqish
Паст	–Aholi, mahalliy OAVlardan vaziyatga izoh berishni so‘rab alohida so‘rovlar tushishi mumkin	– Davlat organi/idorasi tizimi xodimlariga nisbatan xizmat tekshiruvi o‘tkazish tashabbusi bilan chiqish mumkin

2.1-rasm. Qoldiq xavf-xatar darajasini aniqlash shakli


ТАЪСИРЧАНЛИК ДАРАЖАСИ
юқори
ўрта
қуйи
X
қуйи
ўрта
юқори
ЭҲТИМОЛЛИК ДАРАЖАСИ